

Ona yurting - oltin beshiging

TONG YULDUZI

№38 (66371)
2002 yil
16 sentabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

Diyorimning Diyoriman,
Ota-onam erkatoyiman.
Ona yurtim omon bo'lsa,
Dunyoda eng boyiman, -
deya qo'shiq kuylaydigan
Diyorbek Mahkamovni ko'pchilik
yaxshi taniydi. Yosh xonanda san'at
olamiga ilk qadamlarini qo'yishi
bilanoq ko'plab
muxlislar orttirdi.

*Q o ' s h i q
shinavandalari*

mashhur shoira Shokira
Mahkamovning nabirasi «chakki
emas-ku» deya unga havas ham
qilishdi. Lekin uning ukasi,
endigina sahnalarga chiqib,
xonish qilayotgan Elyorbek
Mahkamovni hali ko'pchilik
tanimaydi. Lekin Elyorbek ham
akasidan qolishmaydi.

- *Qo'shiq aytish uncha qiyin
bo'lmagandir-a? Akangiz ko'mak
bersa, buvingiz yoshingizga moslab
she'rlar yozib bersalar kerak-a?* - deb so'raymiz undan.

- To'g'ri, Diyorbek akamdan
o'rnak olib, san'atning birinchi
zinapoyasiga qadam qo'ydim. Har
bir qo'shiqni yaratishda qo'llaridan
kelgancha yordam beradilar.
Buvijonim esa chiroqli she'rlar yozib
beradilar. Shunday bo'lsa-da, o'z
ustimda juda ko'p ishlayman.
Chunki qo'shiqni xalqqa manzur qilib
yetkazishning o'zi bo'lmaydi-da...

- *Demak, birinchi tomoshabin
ham akangiz bo'lar ekanlarda?*

- Akam bilan birgalikda qo'shiq
yozamiz. Birinchi tomoshabinlarim
esa dadam bilan oyijonim.

- *Akangizga o'xshashni
xohlaysizmi?*

- Ularga juda havas qilaman.

"ANA, ELYORBEK KELYAPTI"



bo'lishini, «Ana, Elyorbek kelyapti»,
deyishlarini orzulayman.

- *Qaysi xonandalarga o'xshashni
orzulaysiz?*

- Buvimning oldilariga ko'plab
san'atkorlar kelib turishadi. Shuhrat
Qayumov meni ko'rdi deguncha,
«qalay, shogird» deb qo'yardilar.
Ularning bir-ikkita qo'shiqlarini xirgoyi
qilib yurganimni eshitib qolibdilar. Shu-
shu hazillari chin bo'lib, «ustoz-
shogird» bo'lib yuribmiz. Niyatim -
ulardek san'atkor bo'lish.

Mustaqil yurt bolalari — iqtidorlidir

- *Ustozingiz bilan akangiz
yaratgan duetlar juda ajoyib
chiqqan. Sizning ham duet aytish
niyatizingiz bormi?*

- Bobur Bobomurod she'ri bilan
aytilgan «Bolalarining onalari»
qo'shiq'i qoyilmaqom chiqdi. Bu
qo'shiq akamning ham, Shuhrat akaning
ham muxlislariga birdek yoqdi. Uyda
tinmay telefon jiringlaydi. Faqat
bizga qiyin. Telefonni yonida jilmay
o'tirishimiz kerak. Ustozimni men
bilan ham shunday duet
aytmagunlaricha qo'yayman.

- *Maktabda o'qishlar qalay?
Qaysi fanlarni yoqtirasiz?*

- O'qishlarim yaxshi. Kundalik
daftaramni ko'rganlarida dadajonim
har gal «barakalla» deb qo'yadilar.
Sevimli fanimga kelsak... men
yoqtirmaydigan fanning o'zi yo'q.

- *Ijodda qanday yangiliklar bor?*

- Yaqin orada yangi qo'shiqlarim
bilan chiqaman. Hozircha nomi sir
bo'la qolsin. Aytsam, qizig'i
qolmaydi.

- *Qaysi kitoblarni sevib o'qiysiz?*

- «Sariq devni minib» kitobi jonu
dilim. Qani endi sehrli qalpoqcham
bo'lsaydi... Agar bo'lganda ham
Hoshimonga o'xshamasdim, faqat
yaxshiliklar qillardim. Buyam bir
xayol-da. Undan tashqari «Gulxan»,
«G'uncha», «Tong yulduzi» doimiy
hamrohim.

- *Tengdosh do'stlaringizga
tilaklariningiz?*

- A'lo baholarga o'qib, niyatlariga
yetib yurishsin. Ota-onalarining
duolari ularga doimo hamroh bo'lsin.

Jamshid TOSHQULOV
suhbatlashdi.

DIAQAT!

Shu yil 21 may - 10 iyulgacha davom etgan «BMT bilan o'yna» viktorinasiga yaqinda bo'lib o'tgan final bosqichi yakun yasadi. Viktorina BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi va Jenevadagi BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Shveysariya konfederatsiyasining O'zbekistondagi elchixonasi, BMTning taraqqiyot dasturi, BMTning bolalar fondi YUNISEF, BMTning aholi fondi tomonidan tashkil qilingan bo'lib, unda 14-16 yoshli o'smirlar ishtirok etishi kerak edi. Viktorina mavzusi Janubiy Afrikadagi Yoxannesburg shahrida 27 avgust - 4 sentabr kunlari o'tkazilgan Oliy darajadagi Butunjahon uchrashuvida ko'rilgan «Barqaror taraqqiyot»ga bag'ishlandi.

Tanlovdan bosh maqsad - yoshlarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning faoliyati, barqaror insoniyat taraqqiyoti, yer resurslari, ekologik muammolar, iqlimning isishi, havoning ifloslanishi, aholi sonining o'sishi, qashshoqlikning kuchayishi kabi holatlarga befarq bo'lmasliklari, iqtisodiy, maishiy va madaniy huquqlarni anglashlari ko'zlangandi. Viktorinaning bosh homiysi «Shteynert in das triz» kompaniyasi, «Vodiy



sadosi» radiosи eshittirishidir.

«Tong yulduzi» va «Klass» gazetalari viktorinaning bosh matbuot homiylari bo'ldi. «Oriyat-Dono» va «Oriyat FM» radiosи, «Tashkentskaya pravda» gazetasi ham matbuot bo'yicha ko'mak berdi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va YUNESKOning

milliy komissiyasi so'rovnomalarning Respublika bo'yicha tarqalishida nazorat o'rnatdi.

Viktorina savollariga javob yo'llagan Toshkent shahri, Namangan, Andijon, Samarqand, Sirdaryo va boshqa viloyatlar o'quvchilari soni 15000 dan ziyod edi. Shulardan 20 ta savolga to'liq va to'g'ri javob

topgan mакtab va litsey o'quvchilaridan 28 nafari tanlab olindi. Yana 18-19 ball to'plagan 50 nafar ishtirokchi BMT Bosh kotibi Kofi Ananning dastxati tushirilgan diplom va esdalik sovg'alarini qo'lga kirtildilar.


BMT tomonidan uchinchi marotaba o'tkazilayotgan viktorinaga qiziquvchilar soni tobora ko'paymoqda. 2000 yil Temur Chebanov, 2001 yil

Renat Kilkeyevlar Shvetsariyaga borib keldilar. Xo'sh, bu yil Jenevaga borish kimga nasib qilarkin?

YANA BIR GOLB JENEVAGA YO'COLDI

«Interkontinental» mehmonxonasining Amir Temur zalida bo'layotgan finalda ishtirokchilar hayjon bilan o'tirishardi. Hademay yirik mukofotlar sovrindorlari aniqlanadi. Birinchi so'z navbatni BMTning O'zbekistondagi doimiy vakili Richard Konroyga berildi. Ishtirokchilarni samimi tabriklab, ularga omad tilarkan:

«Yoshlarning oldida turgan global masala, ya'ni «Dunyodagi barqaror



taraqqiyotni asrash» haqidagi viktorina shuning uchun ham tashkil etildiki, toki u o'quvchilar uchun bunday muammoni chuqr



President asalarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'YOASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda.)

— jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

— millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;

— jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'gom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Bu — O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining «Vatanim menga nima berdi?» deb emas, balki «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman?» degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi demakdir.

Milliy mafkura haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. Asosiy Qonunimizning 12-moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan:

«O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

(Davomi bor)



tushunishlari va o'rganishlariga yana bir imkoniyat bo'lsin». Undan tashqari BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi bosh kotibi muovini Barrigiat Shmyognerovaning tabrik xatini o'qib eshittirdi. Xalq ta'limi vazirining birinchi muovini Rustam Axliddinov esa: «O'zbekistonlik o'quvchilar BMTning maqsadi va Vazifalari haqidagi bilimlarini yaxshigina namoyish etishdi. O'yaymanki, o'zbekistonlik millionlab o'quvchilar BMTning O'zbekiston dagi vakolatxonasi ko'magida global muhim muammolarning yechimini topishga o'z hissalarini qo'shadi», deya ishtirokchilarni yanada ruhlantirib yubordi.

Shunday qilib, hayajonli daqiqalar boshlandi.

Qibraylik Bobur Shomaqsudovga O'zbekiston xalq artisti Nasiba Abdullayeva o'zining lazer disklari, audiokassetalari va esdalik sovg'asini topshirdi. Bir ball kam to'plagan Shahnoza Murotova esa «Vodiy sadosi» rahbari Malika Kolmatova tomonidan audiomagnitafon bilan taqdirlandi. «Sharq-Mir» bosh direktori Vadet Zaim tomonidan qo'yilgan 20 ta soat o'zegasini topdi. Uchinchi o'rinni sohibi Behzod Turbanov muzika markazining, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan Venera Ziyovuddinova esa

Internet tarmog'iga ulangan kompyuterning egasi bo'ldi. Eng oliv yutuq - Jenevaga yo'llanmani homiy - Shveytsariyaning O'zbekistondagi elchixonasidan tashrif buyurgan missiya boshlig'inining muovini Kristina Marti aniqlab berdi. U bank kolleji talabasi 16 yoshli Yevgeniy Chexovskiyga nasib etdi.

Viktorina g'oliblari va barcha ishtirokchilarni qutlab, «...Dono, zukko yoshlarimiz ertangi jamiyatimizning vakillaridir. Shunday yoshlarimiz bor ekan, demak, kelajak ham ishonchli qo'llarda» dedi sovrindorlarni taqdirlash marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov. O'zbekiston xalq artisti Ilhom Farmonov, O'zbekiston xalq artisti Mansur Toshmatov, «Nihol» sovrindori Rayhon G'aniyeva, xonandalar



Abduvali Rajabov, Zafar Rahimov va «Anor» guruhi yig'ilganlarga o'z



qo'shiqlarini armug'on etdilar.

**Muharrama PIRMATOVA.
Suratlar muallifi
Olga LISENKO.**

NURONIYLARGA EHTIROM

A. Ikromov nomli 13-umumiy o'rta maktabda ham «Qarisi bor uyning parisi bor», «Nuroniy larga ehtirom», «Biz sizlarni e'zozlaymiz» mavzularida tadbirlar o'tkazildi. Bunda asosan, Yangiravot va Qorayantoq qishloqlarida istiqomat qilayotgan 150 nafardan ziyod otaxon va onaxonlarning Vatanimiz Mustaqilligi yo'lida olib borgan mardon kurashlari, fidoiy mehnatlari, bunyodkorlik ishlari

o'quvchilar ijro etgan sahna asarlarida, she'r va qo'shiqlarida o'z talqinini topdi.

Qishloq qariyalarining bosib o'tgan ibratli umr yo'llarini hayotiy lavhalarda aks ettira olgan Nilufar Eshboyeva, Hamidullo Usmonov, Habiba Ravshanova, Nilufar Rahimova singari yuqori sinflarning a'lochi o'quvchilar mahorati davra qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi. Tadbirda ishtirok etgan qishloq qariyalariga maktabning ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Erkin Ulug'ov boshlang'ich sinf

o'quvchilari tomonidan tayyorlangan esdalik albomlarini topshirdi.

Bu kabi tadbirlardan tashqari maktabning bolalar va o'smirlar hamda «Kamolot» yoshlar uyushmasi tomonidan «Mehr-muruvvat ko'rsatish» kunlari o'tkazilmoqda. Hozirga qadar Islom bobo Dimonov, Egamberdi bobo Boymirov, Boboqul bobo Yo'ldoshev singari ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining, Toji momo Safarova kabi mehnat faxriylarining holahvollaridan o'quvchilar xabar olishib, kundalik uy yumushlariga ko'maklashib turishibdi.

**Zubaydullo RAVSHANOV,
Samarqand viloyati,
Pastdarg'om tumanidagi
Yangiravot qishlog'i.**

KALTA KIYMANGLAR!



Qo'limga qalam ushlab maktub yozishimga turtki bo'lgan mavzu - bu qizlarimizning kiyinshlaridir. O'qishlar boshlansa, barcha maktab formasiga o'tadi-ku, deb o'ylagandim. Yo'q, qizlar buning ham yo'lini topishibdi. Qora matodan kalta yubka, oq yupqa matodan kofta kiyib, «televizor» bo'lib yurishibdi. Yozda-ku yelkalari tugul qorinlarini ham ochib yurishgandi. Kiyinsh madaniyatidan boxabarlar bu-kabi kiyimlarni sport klublariga, cho' milish hayzalariga; tog'larga kiyadi. Maktab, litsey va kollejlarga, majlis va kutubxonalarga ziyorilar kiyimi kiyish darkor. Shuning uchun o'z fikrimni bildirmoqchi edim. Yana meni «zamondan orqada qolgan»ga chiqarmang. Yangi urf kiyimlari qimmat narxda bo'ladi. Birgina shunaqa kiyim puliga bir nechta badiiy kitoblarni xarid qilish mumkin. Tashqi go'zallikka intilgan yosh ma'naviy go'zallikdan bir chimdim bo'lsa-da, bahra olsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sanjar MAMATQULOV,
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi
2 - o'rta maktabning 8-«A» sinfi o'quvchisi.

FIKRIMIZNI CHALG'ITMAYDIMI?

Yangi o'quv yilida yangi-yangi kiyimlarimizni kiyib, yangi o'quv qurollarini ko'tarib qadrdon maktabimiz quchog'iga qaytganimizga ham bir oycha bo'lib qoldi. Sinfga kirsam, sinfdoshlarim daftarlarining jildidagi rasmlarni berilib tomosha qilishardi. Hammasi o'zbek va xorijiy estrada yulduzlarining surati bilan «bezalgan». O'quvchilar menimcha daftarlarni o'tilgan darslarni yozish uchun olishadi, rasmini tomosha qilish uchun emas-ku, axir.

O'quvchilarning daftarlari ustida buyuk siymolarimizning suratlari, yurtimizdag tarixiy obidalarning suratlari bo'lsa, menimcha juda yaxshi bo'lardi. Shusiz ham har kuni ekranlarda ko'rayotgan xonandalarimizning suratlarini endi dars mobaynidà ham ko'rib o'tirish o'quvchini bilim olishdan chalg'itmaydimi?

*Qizlarxon YO'L DOSHEVA,
Poytaxtimizdagi 214 - maktabning
6-«V» sinfi o'quvchisi.*

MAKTABINGIZ TARIXINI BILASIZMI?

Faxr

O'tmisiz - kelajak yo'q, kelajak esa biz yoshlarning qo'lida. Yurtboshimizning, tarixni bilmay turib, kelajakka yangi nazar bilan qarab bo'lmaydi, degan gaplarining haqligiga ko'p bor amin bo'lganmiz.

Men ham yaqinda mahallamiz, maktabimiz tarixini o'rganishga kirishdim. Bunda mena mahalla oqsoqollari, keksa otaxonu onaxonlarimiz yaqindan yordam berdilar.

Bizning Shotursun G'ulomov nomli 114 - maktabimiz «Mevazor» mahallasining markazida joylashgan. Bu yerlar «Kalinin» nomli javoa xo'jaligiga qarashli bo'lib;

asosan bog'dorchilik bilan shug'ullanilgan. 1956-60 yillarda «Toshkentni kengaytirish» «operatsiyasi»ni amalgalashirish natijasida bu javoa xo'jaligining yerlari shaharlarga bo'lib berilgan. Yer bo'lib berish orqali shahardan o'zbek oilalarining ma'lum qismi siqib chiqarilgan, ularning ichki va tashqi hovlilarini buzib, ko'p qavatli uylar qurish ishlari boshlab yuborilgan. Bog' nomi o'chib ketmasin deb, mahallani «Mevazor» nomi bilan ataganlar.

Bizning 960 o'rinni maktabimiz 1966 yilda qurilgan bo'lib, Zulfiya

Hamroqulova birinchi maktab direktori lavozimida ish boshlaganlar. 1985 yildan Mastura opa Ubaydullayeva direktorlik qilib kelmoqdalar. Maktabimizning orqa tomonidan katta ariq oqib o'tadi, oldida esa mevazor bog' bor. Maktabimiz direktorining tashabbusi bilan ko'plab ko'chatlar o'tkazdik. Bilim dargohimizga mehmon bo'lib kelganlar, maktabingizning qandaydir fayzi bor, boshqa joylarga o'xshamaydi, deyishadi. Ustozlarimiz bilan birgalikda badiiy kechalar, milliy urfadotlarimizga oid tadbirlar o'tkazib turamiz.

Maktabimiz o'quvchilari

sonining ortishi qo'shimcha bino qurishni taqozo etdi. 1985 yil maktabni kengaytirish, bolalarni bir smenada o'qitib, darsdan so'ng to'garaklarda shug'ullanishlariga sharoit yaratish maqsadida urush faxriysi oliy ma'lumotli yurist, jonkuyar tashkilotchi Rahimjon ota hamda maktabimiz direktori Mastura opa shu ishga bel bog'ladilar. O'z baxtidan o'zgalar baxtini ustun ko'radigan bu fidoiy insonlar 5 yil mobaynida yelib-yugurib, yangi binoni qurib bitkazilishiga bosh bo'ldilar.

Biz o'quvchilar ulardan juda minnatdormiz.

Dildora

XOLMUHAMMEDOVA.

Men markaziy kutubxonanining bolalar uslubchisi bo'lib ishlayman. Shuning uchun ham «Tong yulduzi»ning talabgorlari naqadar ko'pligidan boxabarman. Yodimda bor, bolaligimda men ham ana shu gazetani juda sevib o'qirdim. Har yili unga albatta obuna

MA'NAVIY MURABBIY

bo'lardim. Yillar o'tib, qizlarim - Mashhura va Marg'ubalar ham shu gazetaning har bir sonini o'qishyapti. Gazetaning minglab muxlislari, shogirdlari hozir hayotda o'z yo'lini topib, biri olim, biri fozil, biri mirob, qo'yingchi

barcha sohalarda faoliyat ko'rsatishyapti. Mening shogird deyishimga sabab qo'limizdan ushlab harflarni bittalab o'rgatmasa ham, ma'naviy murabbiylik qilgan. Men maktabda 10 yil, kutubxonada 20 yildan buyon ishlayman.

KITOB QALB KO'ZIDIR

Kitob inson qalbini yorituvchi, hayot saboqlari, pastu balandliklarini o'rgatuvchi eng asosiy manbaadir. O'zbek adabiyotiga nazar tashlasak, XX asrga kelib, ko'plab asarlar, kinolar, pyesalar yaratildi. Lekin bugungi kunda yoshlarbop lotin alifbosidagi kitoblarning kamligi bizni tashvishga solyapti. Yaqinda biz tahsil olayotgan 116-maktabda bo'lib o'tgan kutubxonachilar seminarida

ham aynan ana shu mavzu haqida fikr yuritildi. Bu seminarda A.Ikromov tumanidagi barcha o'quv muassasalarining .ziyo tarqatuvchilari ishtirok etishdi.

Yig'ilishda milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslarini yoshlar orasida targ'ib qilish, ongini o'stirish, kitobga bo'lgan mehrini oshirish hamda kutubxonalarini yangi nashrdagi kitoblar bilan



boyitish masalalari muhokama qilindi. Seminar yakunida O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlari har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishida kitobning ahamiyati nechog'li katta ekanligi, kitob o'qiydigan bolalarning qalbida yomonliklarga aslo o'rinni bo'lmashligi yana bir bor ta'kidlandi.

Munisaxon

AHMADXO'JAYEVA,
Malohat TO'XTAYEVA,
Toshkent shahar,
A.Ikromov tumanidagi
116 - maktabning
8- «B» sinf o'quvchilari.



ORTGA QAYTSAYDI...

Yangi o'quv yili ham boshlandi. Bugun men o'zim o'qigan mактабимга begonaligimni ilk bora his qildim. Men dars tinglagan sinf xonalarida bugun begona o'quvchilar, men o'tirgan partada boshqa bir qiz o'tiribdi. Yaqindagina menga dars tushuntirgan o'qituvchim esa bugun butun borlig'i bilan boshqa bir o'quvchiga dars tushuntirish bilan ovora. Bizning devoriy gazetamiz o'rnida boshqa bir sinfning gazetasi, a'lochi o'quvchilarimizning rasmi turgan joyda boshqa a'lochi o'quvchilarning surati. Sho'xliklar qilib o'tirgan sinf xonamiz, har kuni o'n martadan ko'p o'tadigan yo'laklarimiz bizsiz ham gavjum...

O'zim qadriga yetmagan oltin lahzalarni, mehribon ustozlar siymosini, sinfdoshlarimni juda-juda sog'indim. Imkon bo'lganda edi, bir zumgina bo'lsa ham bolaligimga jon deb qaytardim. O'sha beg'ubor damlar bir zumgina ortga qaytganda edi...

Sizlarni juda sog'indim, qadrondonlarim. Bilib-bilmay qilgan xatolarim, bolalikdagi sho'xliklarim uchun uzr so'rayman.

UMIDA.



BIZNI KECHIRING, USTOZ!

Biz 4 - sinfni bitirganimizdan so'ng «A» va «B» sinf o'quvchilaridan tanlab olingen matematika faniga ixtisoslashgan sinfda o'qiy boshladik. O'shanda «B» sinf o'quvchilari bilan do'stlashishimiz juda qiyin kechgan.

Darslar asta-sekin o'z iziga tusha boshladi. O'g'il bolalarimiz juda sho'x edilar. Darsdan so'ng qizlarning yo'lini poylab, suv sepadigan odat chiqardilar. Ularning bu ishidan mактabga ham borgimiz kelmay qoldi. Qanday yo'l tutishni bilmay, sinf rahbarimizga ariza yozdik. Ustozimiz bizdan juda xafa bo'ldilar. Og'zaki aytar qolmay, ariza yozganimiz, o'qituvchilardan har kuni shikoyatlar tushayotgani uchun ko'zlariga yosh olib: «Shuncha yil o'qituvchilik qilib, sizlarga o'xshagan o'quvchilarni ko'rmagandim», dedilar. Bizga nasihat qildilar.

Oradan ko'p o'tmay sinf rahbarimiz mактabimiz ilmiy mudiri vazifasida ishlay boshladilar. Shundan so'ng bizni, sinfni ham tarqatib yuborishdi.

Endi biz o'z qilgan xatoimizni tushunib yetdik. Shuning uchun u kishidan, qolaversa, barcha ustozlarimizdan kechirim so'raymiz.

*Sevara AXROROVA,
Samargand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
23 - mактab o'quvchisi.*

O`ZINGNI ASRA!

Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul, degan naqlni hammamiz yaxshi bilamiz. Ozodalik, kun tartibiga rioya qilish, badantarbiya bilan muntazam shug'ullanish salomatlikning kalitidir. Bu «kalit» esa har biringizda bo'lishini istardik. Shu maqsadda biz sizlarga turli bolalar kasalliklari va ularni oldini olish haqida shifokor maslahatlarini berib borishni rejalashtirdik. Agar siz ularga rioya qilib, salomatligingizni yoshlikdanoq tiklab borsangiz, sog'lom va baquvvat bo'lib o'sasiz. Zero, sog'tanda - sog'lom aql deb bejiz aytilmagan.

Aziz bolajonlar, mana asta-sekin o'lkamizda kuz ham o'z hukmronligini o'tkazmoqda. Bugun sizlarga kuz va qish oyalarida eng ko'p tarqaladigan **GRIPP** xastaligi haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Gripp - o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, ko'proq og'iz-burun bo'shilg'i va havo orqali yuqadi.

Alomatlari - ko'z yoshlanishi, burun shilliq pardalaridan suv kelishi, bosh

og'rig'i, tana haroratining ko'tarilishi, butun badanning qaqshab og'rishi.

Asoratlari - tomoq, burun va o'pkani ishdan chiqarishgacha borishi, vaqtida oldi olinmasa, hatto asab to'qimalarining shikastlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Kasallikning oldini olish:

- terlab turib ochiq shamolga

Shifokor maslahati

chiqmaslik;

- sovuq suv ichmaslik;
- kunlar soviy boshlagandan so'ng yengil kiyimda yurmaslik;
- mактab, bog'chada iloji boricha niqob taqib yurish;
- gripp bilan og'rihan bolalardan tarbiyachi, o'qituvchilarning ogoh bo'lib turishi;
- gripp bilan kasallangan bemorning uyda yotib davolanishi va yon-atrofdagi bolalarni uning yoniga yaqinlashtirmaslik lozim.

Davolanish - o'z bilganicha dori iste'mol qilmay, shifokor maslahatlariga qulqutish, uy sharoitida limonli choy, turli dorivor o'simliklar damlamasini ichish, ko'proq dam olish foyda beradi.

*Aqida SAYFUTDINOVA,
bolalar shifokori.*

Sizning kitob javoningizga**BOLALAR - SH'RIYAT BULOG'IM**

Bizni kim shunday ta'riflaydi, deb hayron bo'lman. Shoir va o'qituvchi bobongiz Abdug'affor Qo'ziyev 74 yoshda bo'lsalar ham siz uchun chiroyli she'r, hikoya yozishdan charchamaydilar. «Baxt yulduzi» nashriyoti shoir bobongizning «Shalola chashmasi» she'rlar to'plamini sizga tuhfa etganidan xabaringiz bordir. Ko'rmagan bo'lsangiz, topib o'qing, undagi she'rlar Sizga manzur bo'ladi, albatta.

Abdug'affor ota bolalarga atab ko'p yozishlarining sababi, 50 yildan ortiq

maktabda - bolajonlar davrasida bo'lib, ularga saboq berganlaridan bo'lsa kerak. To'rtliklaridan birida shunday yozadilar:

Ilm - hayat bulog'i,
Go'zal umr chirog'i.

Ilm bilan yashnagay,
Vatanning zar tuprog'i.

Kitobdagagi she'rlar yurtga sodiq qolish, tabiatni sevish, o'simlik va hayvonot olamini asrash, ota-onani, ustozni hurmat qilish kabi oliyanob fazilatlarga undashi bilan ahamiyatlidir. Ularni o'qisangiz, Alidek arazchi,

Solidek maqtanchoq bo'lmaslik kerakligini tushuni b o l a s i z . «Kurashlarda chiniqqan», «hammagay oqqagan», Hakimjon polvon kabi «momosining erkasi» bo'lgingiz keladi.

Shoir bobongiz «Xumoraxon nevaramga» nomli she'rlarida Vatan yuragi, istiqlol tayanchi bo'lgan siz nabiralariga shunday xitob qiladilar:

Vatanning sarboni bo'l,



El-yurtim posboni bo'l.

Sinfdan tashqari va mustaqil o'qish darslarida «Hilola va Zilola», «Kichik pahlavon», «Chegarachi bo'laman», «Dadamlar» she'rlaridan foydalanishingiz ham mumkin.

Kitobsevar bolajonlar! «Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal», deydilar. Yaxshisi, Siz ham kitobni olib o'qing, she'rlardan yodlang. Nutqingiz ravon, so'zingiz ta'sirli bo'ladi. Kitob doimiy hamrohingiz bo'lsa, yomon ishdan tiyilasiz, yaxshi odatlarga o'rganasiz. Zero, siz bizning kelajagimiz, baxtu iqbolimizsiz.

Mahmuda ZOIRJON qizi.

SO'NGGI PUSHAYMON

Mahbuba opa bugun ishdan barvaqtroq qaytdi. Negadir ko'ngli hijil bo'lib, uya tortaverdi. Keldi-yu darrov ko'zining oqu qorasi Asadni izladi. Kecha shuncha koyisa ham o'rtoqlari bilan aylangani ketibdi.

- Ha, Asadni erkalatib yubordim. Yegani oldida, yemagani ketida. Katta bo'lgani sari ko'chadan kelmaydi. O'qishlari ham pasayib ketmoqda. Bu safar yillik baholariga uch oralabdi. Dadasi yolg'ondan bo'lsa ham urushib qo'yay demaydilar.

O'ziga o'zi gapirib o'tirgan edi, eshik ochilib qoldi. Bozor-o'char qilingan xaltani ko'tarib, eri kirib keldi.

- Voy, dadasi payqamay qolibman, yaxshi keldingizmi?

- Ha, yaxshi. Ovqating pishguncha men biroz mizg'ib olaman, juda charchadim...

Shu payt Asad kirib keldi. Mahbuba opa dadasingning oldida o'g'lini koymadi-yu ammo ko'zları bilan ma'noli qarab qo'ydi.

- Ota o'g'il, bir mashinani yaltillatib yuvib qo'yamsizmi? Kalit mashinaning o'zida.

- Xo'p dada, mashina yuvish jonu-dilim ekanini bilasiz-da.

Mahbuba opa ovqatga unnay ketdi. Asad mashinani u yoq bu yog'ini yuvgan bo'ldi-da, o't oldirdi. Onasi yugurgancha ko'chaga chiqqanida u allaqachon o'rtoqlari bilan ketib bo'lgandi...

Uya kirib ovqatni qanday qilib tayyorlaganini ham bilmadi. U faqat Asadni o'ylardi. Oradan ancha vaqt o'tdi, lekin daragi yo'q. Xavotir olib, har xil xayollarga bordi. Chunki Asad hali mashina haydashni unchalik yaxshi bilmasdi. Yaqinada ham mashinani yuvib,

ko'chada bir-ikki haydabdi. Qo'shni kelinni yosh bolasini bosib olishiga sal qolibdi. O'shanda Mahbuba opa rosa hijolat bo'lgandi. Hanuz ko'zko'zga tushib qolsa, hijolat bo'ladi.

- Mahbuba opoqi, Mahbuba opoqi...

- Sekin, sekin. Zohid bolam, tinchlikmi? Nima, yana ayangni ahvollarini yomonlashdimi?


- Ayam emas, Asad akam...

- O'g'limga nima bo'ldi? Gapisang-chi...

- Avtohalokatga uchrashdi, ko'chaning boshida, odam rosa ko'p.

- Bolam... Asadjon...

Xotinining dod-voyini eshitib, Ergash aka ham yugurib chiqdi. Darrov voqeasodir bo'lgan joyga yugurdilar. Bu paytda Asad kasalxonada behush yotardi. Uning ahvoli juda og'ir edi. Unimadir demoqchi bo'lardi-yu ammo gapira olmasdi. Bir-ikki g'o'ldiradi, lekin hech kim



tushunmadni. Ota-onasi tezda yetib keldilar. Lekin ular kelganda Asadning joni uzilib bo'lgandi...

Kim biladi balki g'o'ldirab, hali yashagim kelyapti, degandir. Balki do'starining ahvolini bilgisi kelgandir, ota-onasining diydorini ko'rishni istagandir.

Ikki do'sti ham og'ir ahvolda shifoxonaga keltirilgandi. Shifikorlar ularning yashab ketishlariga umid bildirdilar...

Agar dadasi kalitni bermaganida, Asad beso'roq mashinani haydamaganida, do'starining gapiga kirmaganida, yo'l nozirlaridan qochmaganida, bu falokatlar ro'y bermasmidi?..

Afsus, endi kech. So'nggi pushaymon, o'zingga dushman, deganlari rost ekan.

Adolat G'AYRAT qizi.

Yaqinda Respublika ta'lim markazida «Inson va tabiat» mavzusida yaratilgan «Rang-barang tabiat», «Inson va havo», «Suv - hayot manbai» o'quv qo'llanmalari hamda «Tomchi suvda hayot jilvasi» ko'rik-tanlovining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirining o'rinnbosari U.Q.Musayev, Respublika ta'lim markazi direktori G.Ya.Alimova, ta'lim markazi bo'lim boshlig'i G.O'.Solixova, buyuk britaniyalik professor J.Xaynson, O'zbekistondagi Buyuk Britaniya elchixonasi vakili Kris Xerst va O'zbekistondagi Britaniya Kengashining direktor muovini Martin Sevyer, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, «EKOSAN» halqaro jamg'armasi vakillari hamda viloyatlardagi maktab o'qituvchisi va o'quvchilari ishtirok etdilar.

- Mana ikki yildirki, Markaziy Osiyo davlatlarida hamda Ukraina va Rossiyada atrof muhitni muhofoza qilish ta'limi bo'yicha ish olib borayapmiz. Ma'lumki, inson va tabiat hamma

maqtovga loyiq. Ular har bir tanlovlarda faol ishtirok etishadi. Men ulardagi qiziquvchanlik va izlanuvchanlikni juda qadrlayman.

- deydi Atrof muhitni muhofaza qilish ta'limi bo'yicha buyuk britaniyalik professor Jeyms XAYNSON

vaqt bir- biri bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Biz tabiatga mehr bilan qarashimiz lozim. Ana shundagina tabiat bizga o'zining betakror mo'jizasini in'om etadi. Ulardan oqilona foydalanish esa yana insonlarga borib taqaladi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'limni maktab partasidanoq boshlashimiz zarur ekan.

Britaniyalik bolalar 16 yoshgacha ekologik ta'limga katta qiziqish bilan qaraydilar. Maktablarda ekologik ta'limga e'tibor bo'lsa-da, biroq o'quvchilar orasida bugungiday ko'rik-tanlovlardan deyarli o'tkazilmaydi. Balki bunga sabab kattalarning biroz bee'tiborligidir.

Bu borada o'zbekistonlik bolalar

Shularni inobatga olib, bu yil «Inson va tabiat» mavzusida yaratilgan «Rang-barang tabiat», «Inson va havo», «Suv - hayot jilvasi» o'quv qo'llanmalari nashr etildi. Ushbu qo'llanmalar yaqin kunlarda barcha maktab kutubxonalariga tarqatiladi.

Qo'llanmalardan tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida atrof muhitni muhofaza qilish ta'limi bo'yicha qo'shimcha qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Albatta kitob mualliflarini

tabriklaymiz. Bu ishlaridan g'ururlansalar arziyi. O'z o'mida o'quvchilardan kitob haqidagi fikrmulohazalarini ham kutib qolamiz. Ekologik ta'limga oid birinchi kitob bo'lgani uchun ham unda kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Kitob mualliflari sizlarning o'rini fikrlaringizni inobatga oladi va bundan-da yaxshiroq tayyorlashga harakat qilishadi, degan umiddaman.

«TOMCHI SUVDA HAYOT JILVASI»GA MARHAMAT

Xabaringiz bor, o'tgan o'quv yilida umumta'lim maktablari o'rtasida ichimlik suvini tejashta qaratilgan



«Tomchi suvda hayot jilvasi» mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazilgan edi. Bu yangi usuldagagi ko'rik-tanlov bo'lib, unga atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha buyuk britaniyalik maslahatchi, Jeyms Xaynson boshchilik qilgandi.

Ko'rik-tanlovni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi, «Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish» loyihasini Britaniya Kengashi qo'llab quvvatlagandi.

Ko'rik-tanlovda Respublikamizdagi 1000 ta maktab, 30000 nafardan ortiq o'quvchilar suvni tejashta qaratilgan tadqiqotlari bilan ishtirok etishdi, deydi Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i Go'zalxon

Solixova. - Ko'rik-tanloving yakuniy bosqichida Sirdaryo viloyati, Sh.Rashidov tumanidagi 15 - mактаб o'quvchilari birinchi o'rinni, Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 10 - mактаб o'quvchilari ikkinchi va Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 1 - mактаб o'quvchilari uchinchi o'rinni egallashdi.

G ' o l i b maktablarga va Qoraqalpog'iston Respublikasi N u k u s shahridagi 1 - gimnaziyaga Britaniya Kengashi tomonidan kompyuterlar taqdim etildi.


Ko'rik- tanlov muvaffaqiyatli va kutilgandan anche yuqori natijalarini bergani sababli «Tomchi suvda hayot jilvasi» tanlovinii 2002- 2003 o'quv yilida ham davom ettirishga qaror qilindi.

Bu yilgi ko'rik-tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi.

- 1- bosqich umumiy o'rta ta'lim maktablarida;
- 2- bosqich tuman, shahar miqyosida;
- 3- bosqich viloyat miqyosida;
- 4- bosqich Respublika miqyosida;

Ko'rik-tanlovda ishtirok etish uchun tanlab olingan maktablarga o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma, o'quvchilarga tadqiqot daftari va rasmli plakatlar tarqatiladi.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi va homiy tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.



Asosiy homiy - Britaniya elchixonasi va Britaniya Kengashi.

Suvni tejash bo'yicha o'tkaziladigan ko'rik-tanloving yakuniy bosqichi 2003 yilning 10 - 12 aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadi.

Shoshiling! Ko'rik-tanlovda ishtirok etish uchun oxirgi sana 2002 yilning 1 oktyabri.

Bar ch a maktablarni

qiziqarli va ijodiy ko'rik-tanlovga taklif etamiz. Tanlov 22 mart - butun dunyoda Suvni tejash kuniga bag'ishlanadi.

TABIATNING BETAKROR MO'JIZASI

-O'tgan yili «Tomchi suvda hayot jilvasi» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, g'olib bo'lganimizdan juda xursandmiz,- deydi Sirdaryo viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi 15 - mактабning 10-«B» sinf o'quvchisi Farida Oqmurodova.

«EKOSAN» xalqaro jamg'armasining diplomi, Xalq ta'lifi Vazirligi,

O'zbekistondagi Buyuk Britaniya elchixonasi, Britaniya Kengashi tomonidan birinchi darajali diplom bilan taqdirlandik. Bundan otanalarimiz va ustozlarimiz birdek quvonishdi.

Ko'rik-tanlov bahona ona tabiatga munosabatimiz o'zgardi. Tabiatning beba ho mo'jizasi bo'lmish suvdan to'g'ri foydalanib, bekorga isrof qilmaslikni o'rgandik. Suvsiz hayot yo'qligiga yana bir bor iqror bo'ldik.

Maktabimizda suvni tejash va undan oqilona foydalanish loyihasini ishlab chiqdik.

Respublikamizdag'i barcha tengdoshlarimizni tiriklik manbai bo'lgan suvni asrab-avaylashga chaqiramiz!

Feruza SOYIBJON qizi.



ABADDIAT ARDOOLAGAN ALLOMALAR

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonda.)

Buyuk kimyogar bo'lib yetishgan Aleksandr Butlerov ham yoshligida kimyoga uncha qiziqmagan. Shunga o'xshab Antuan ham bu

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.**

Abu Shukur Balxiy

sohaga ancha kech kirib keldi. Biroq bu qiziqish shu qadar kuchli, ehtirosli ediki, kimyo uning bir umrli qismati

GAROAB TAQDARIY KIMYOGAR

ekanini yigitcha nihoyat teran anglab yetdi.

Har qanday olimning faoliyatida o'zining yo'li, uslubi bo'ladi. Buning ildizlarini esa uning dunyoqarashiyu tadqiqotchi sifatida shakllanishining shart-sharoitlardangina emas, balki sof insoniy fe'l-atvori qirralaridan ham izlamoq darkor. Lavuazening o'limidan so'ng uning asarlarini nashr etishga tayyorlagan kimyogar Dyuma olimning hayot yo'li haqida kirish so'zi yozib berishni ulug' biolog Lui Pasterdan iltimos qiladi. Chunki har ikkovlarining tafakkur yo'nalishi hamda ilmiy ijodiyotdagi tadqiqot usullari o'zaro o'xshash, «ikkovlarida ham kuzatish muhokamaga mutlaqo bo'ysunadi», deb izohlaydi Dyuma.

Bu juda aniq ta'rif. Paster kabi Lavuaze ham bag'oyat ehtirotkor, batartib va ishchan. 1772 yili jism yonganida vazni kamayishi o'rniga aksincha ortishini bilganidan keyin shu birgina dalilning o'ziyoq flogiston nazariyasini kunpayakun qilishini Lavuaze yaxshi tushunib yetadi. Ammo shunday qilishga shoshilmaydi. Shu haqda o'z nazariyasini yaratish uchun boy material to'plashni xohlaydi. Oradan to'rt yil o'tganidan keyin kimyoviy o'zgarishlar jarayonini flogistonsiz ham tushuntirish mumkinligiga sha'ma qilib qo'yadi. Faqat o'n yil o'tib, tajribalarida mutlaqo rad etib



dorishunos Bome kislorodni Lavuazeden avvalroq ajratib olishgandi. Ammo yonish jarayoni ular kashf etgan gazning modda bilan qo'shilushi ekani ular dan hech birining xayoliga ham kelmagan. Yaxshi ot keyin chopadi, degan naqlga qarab ish tutgan Lavuaze esa hammadan o'zib ketdi va F.Engelsning so'zleri bilan aytganda: «... ana shu yangi dalilga asoslangan holda flogiston nazariyasiga suyangani uchungina oyog'i osmondan bo'lib qolgan kimyo fanini o'z o'rniga qo'ydi». Uhavo tarkibini daholarga xos tarzda tahlil qildi, u gazlar aralashmasidan iborat ekanini birinchi bo'lib aniqladi va asosiy qismlarini belgilab berdi.

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

bo'lmaydigan dalil-isbotlarni to'plab olganidan so'ng, u «Flogiston haqida mulohazalar» nomli asar yozib, Shtalning nazariyasini chil-parchin qilib tashlaydi. Shu kitob chop etilganidan keyin flogiston himoyachilari bo'lgan Bertolle, Laplas, Monj va Kulon singari olimlar ham Lavuazening temir mantig'ini tan olib, uning tarafdarlariga aylanishadi.

Kimyogarlar Prestli va Sheyele,

Biroq, Lavuaze xulosalarida hamisha o'ta ehtirotkor. Olmos «ko'mirga nihoyatda o'xshab ketishiga» ishonchi komil, lekin shu zahotiyoyq «... tabiiyki, bu

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

o'xshashlikni yanada chuqurlashtirish oqillikdan emas», deb allanimaning oldini olib qo'yadi. 1783 yil 24 iyunda Lavuaze

KIMYOGAR

Laplas bilan hamkorlikda kislorod bilan vodorodni qo'shib, ilk bora suvni sintez qildi. Gaz miqdori va olingan suv vazni o'chanadi. Buyuk kimyogarning hatto dushmanlari ham bu o'rinda hech nimadan shubhalana olishmasdi. Shunga qaramay Lavuaze tajribani davom ettiradi. Olingan suv bug'larini qizigan temir orqali o'tkazib, temirni oksidlaydi hamda vodorodni ajratib oladi. Xullas, suvning tarkibi ikki vodorod va bir kislorod atomidan iborat ekanligi uzilkesil tasdiqlandi. Olimning o'zi - o'zi uchun eng qattiqko'l tanqidchi edi.

Fransuz akademiyasining 1782 yilgi asarlar to'plamida g'aroyib bir ma'lumotni uchratish mumkin: «Janob Lavuaze bu yil shu qadar ko'p ma'ruza o'qidiki, ularni bosib chiqarishning hech iloji topilmadi». Bittagina joni bo'lsa hammasiga qanday qilib ulgurar ekan-a? U mehmonga borishga ham, mehmon kutishga ham vaqt topardı. Yakshanba kuni Lavuazening uyiga fransuz ilmfani yulduzları - Lagranj, Monj, Bertolle, Laplas, xorijiy hamkasblar to'planishadi. Lavuaze «Kimyo olami» nomli mashhur jurnalga asos soladi. 1785 yildan Fanlar akademiyasi direktori lavozimini egallaydi, uning topshirig'i bilan turli komissiya va komitetlarga a'zo bo'ladi.

(Davomi bor.)

Soliq haqida nimalarни bilasiz?

Amir Temur vafotidan (1405) so'ng Markazlashgan sultanat barham topdi va yuz yil davom etgan Temuriylar davrida Temur avlodlariga bo'lib berilgan yerlarda hukmronlik qilayotgan xon, sulton va amirliklar o'rutasida sodir bo'lgan o'zaro nizolar feodallar urushlariga aylandi. Natijada, Movoraunnahr inqirozga yuz tutdi. Markaziy hokimiyatni Ulug'bek boshqargan vaqtida uning o'g'li Abdullatif bilan aynan soliqqa tortish bo'yicha sub'yekтив munosabat kelib chiqishi oqibatida kelib chiqqan nizo Temuriylar sultanatini butunlay yemirilishiga olib keldi va XVI asrning boshlarida Movoraunnahrda shayboniylar hukmronligi qaror topdi.

Shayboniylar davlatida yerlarni muayyan amaldorlarga tuhfa tariqasida ulashish va bu ulashilgan yerlardan olingan soliqlar davlat xazinasiga emas, balki to'liq yer egalari tomonidan o'zlashtirishga ijozat berilgan. Bunday tarzda tuhfa qilingan yerlar «Tanxo» deb yuritilgan.

Tuhfa qilish bilan bir qatorda o'z xizmatlari bilan davlatga sadoqatli bo'lgan va rag'batlantirishga arzigulik xizmat qilgan mansabdorlarga va ruhoniylarga yerlar to'liq egalik qilish huquqi bilan mulk sifatida ulashilgan. Odadta tuhfa qilingan yerlar soliqqa tortilmagan va hurri xolis, ya'ni davlat to'lovlar majburiyatlaridan ozod etilgan.

Yer ulashish bilan rag'batlantirish usulidan keng miqyosda foydalanib, shayboniylar o'zbek qabilalari sardorlari orasida o'zlariga ijtimoiy tayanch shakllantirdilar.

Shayboniylar davlatida soliq, o'lpon kabi to'lov majburiyatlar tizimi mavjud bo'lgan. Asosiy soliq xiroj bo'lib, sug'oriladigan yersharning 30-40 foiziga, ya'ni ekinzor, bog', poliz va bedazorlarga egalik qilayotganlardan undirilgan. Lozim bo'lgan xollarda, masalan, davlat apparatida xizmatda bo'lgan mansabdorlar, xarbiy ehtiyojlar va xon saroyi harajatlarini mablag' bilan

ta'minlash maqsadida ixrojot solig'i solingen. Ayniqsa, feodal urushlari avjiga chiqqan davrlarda soliqlar undirish juda kuchaytirilgan.

Soliq va o'lponlardan tashqari aholining ma'lum qismi majburiy ishlab berish xizmatini o'tagan. Bunday majburiy xizmatlar ichida eng og'iri yasoq hisoblangan, ya'ni aholi kanallar, qal'a handaqlarini qazish, yo'llar qurish, o'tin, somon yig'ish kabi

yuksaltirishda juda katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajarganlar. Shayboniylar davlatining moliyaviy ishlarini boshqarish, soliqlarni belgilash va yig'ish, undirilgan soliq yig'implari bo'yicha hisoblarni hujjatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan mansablarda xizmat qilayotgan amaldorlar asosan feodallar sinfiga mansub bo'lib, ular ishtirokida ro'yobga chiqariladigan tartib-qoidalar faqat davlat qurilishini boshqarib turgan xonlar manfaatlarini ko'zda tutgan holda joriy qilinar edi.

Ana shunday murakkab, faqatgina bir tomonlama manfaatdorlikka asoslangan, boshqaruva apparati tarkibiga kiruvchi soliq yig'uvchilarga juda keng miqyosda huquqiy vakolatlar berilganligi sababli ular yer egalarining talablariga binoan soliqlar miqdorini o'zları xohlagancha oshirish yoki ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq miqdorini kamaytirish huquqiga ega bo'lganlar. Bunday nazoratsiz holat soliq to'lovchilar mehnati evaziga yetishtirilgan hosil hisobidan amaldorlarga juda katta boylik keltirgan va ikkinchi tomondan mehnatkash xalqni qashshoqlanishiga olib kelgan.

Soliqlarni byurokratik usulda markazlashgan davlat nazoratisiz belgilanishi, cheklanmasdan zo'ravonlik bilan undirilishi va viloyatlarda hukmronlik qilayotgan xonliklar, amirliklar o'rutasida kelib chiqqan nizo urushlari oqibatida Shayboniylar davlatini parchalanib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada, Shayboniylar sulolasini yemirilib, Markaziy Osiyoda XVII asr va XVIII asrning birinchi yarmida shakllangan markazlashgan davlat mustaqil xonlik va amirliklarga bo'lina boshladi.

(Davomi bor.)
Sharofiddin RASULOV,
Toshpo'lat MIRZAYEV.

SHAYBONIY SULOLASI DAVRIDAGI SOqliQ TIZIMI

ishlarga safarbar qilingan. Davlat manfaatlari uchun tashkil qilingan qurilish ishlarida deyarli hamma viloyatlardan



ishchi kuchlari, ustalar, hunarmandlar va boshqa toifadagi tadbirkorlar bepul ishlab berish sharti bilan jalb qilingan.

Shayboniylar davlatining siyosiy va ijtimoiy tizimi harbiy-byurokratik feodalizm tartib qoidalari asosida shakllandi. Bu Amir Temur hukmronligi davridagi adolatli harbiy-feodal sultanatga nisbatan qahri qattiqroq va sub'yekтив o'zbilarmonchilik va ko'proq zo'ravonlikka asoslangan boshqaruva tizimi edi. Davlat tizimidagi markaziy va joylardagi quyi pog'ona amaldorlariiga juda keng vakolat doirasida huquqlar berilgan. Bu amaldorlar Shayboniylar davlatini

«Tong yulduzi» qoshidagi «Istiqlol umidlari» to‘garagiga a’zo bo‘lganimdan beri hayotga, yon-atrofimga o‘zgacha nazar bilan qaraydigan

baliqlarni ko‘rib, zavqlanardik. Non ushoqlarini tashlab yeyishlarini tomosha qilardik. Hozir esa... Uning ahvolini ko‘rib achinib ketasiz. Chiqindi

yig‘lab yuboray dedim.

Afsuski, bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. «O‘zbekiston umumiyy uyimiz» deya og‘iz ko‘pirtiramizu uning

HAMMAMIZ KURASHMASAK...

bo‘lib qoldim. Bir so‘z bilan aytganda, e‘tiborliroq bo‘lib qolganimni his qilyapman. Salbiy illatlarni, ona tabiatimizning ifloslanganini ko‘rganimda xayolimdan, qaniydi hozir sehrgar bo‘lib qolsamu yomonlarning jazosini bersam, degan o‘y kechadi. Uzoqqa bormay, Otchopar bozorining shundoqqina biqinida joylashgan jarlikni olib ko‘raylik. Bolaligimizda uning ustidagi ko‘prikanidan o‘tganimizda tiniq suvning tagida suzib yurgan

uyumlari bilan to‘lib-toshib yotibdi. Eng achinarlisi, bunday manzaraga hammamizning ko‘zimiz ko‘nikib ketgani. Xuddi shunday bo‘lishi kerakdek, e‘tibor ham bermaymiz. Chet elliq mehmonlarning bu manzarani ko‘rib, o‘z tillarida nimalardir deyishayotganini ko‘rib,

ozodaligi, sarishtaligi haqida bosh ham qotirmaymiz. Menimcha, bu borada bir, o‘n, yuz kishi emas, hammamiz jon kuydirishimiz, mahallamiz, shahrimiz, qolaversa, Respublikamiz ozodaligiga o‘z ulushimizni qo‘shsakgina, ekologiyamizni yana asl holiga qaytarishimiz mumkin.

Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdag‘i arab tiliga
ixtisoslashgan
29 - matabning
9-sinf o‘quvchisi.

Dugonam bilan avtobusda ketayotgandik. «Chorsu» bozoridan qo‘lidan og‘ir yuk ko‘targan bir onaxon chiqib, bizdan oldingi o‘rindiqqa o‘tirdi. Ohir «ux» tortib, yonidagi ayolga hasrat qila boshladi:

-Uch nafer farzandim bor. O‘zim o‘qimaganman. Farzandlarimni o‘qimishli, ziyoli qilish uchun yelib-yuguraman. Koshki edi ular

Lekin ularning ichki olamiga nazar tashlasak, ikkisi ikki olam. Ikkisining ham yoqtiradigan yigitlari bor. Zilola sevgan yigit bilan mahallada, hammaning ko‘z o‘ngida uchrashib yuradi. Hatto ota-onasi ham bundan xabardor. Iroda esa bir bola bilan xiyobonlarda,



BIZGA TAMG‘A EMASMI?

shuning qadriga yetsa. Kattam umuman o‘qishni xohlamaydi. Kitoblarini qanday olib bergen bo‘lsam, shunday turaveradi. Qolganlari ham o‘yin qaroq. Dars tayyorlashsin deb hamma yumushlarni o‘zim bajaraman. Ular esa kitoblarga rasm chizib, musiqa eshitib yotaverishadi. Daftarlarning muqovasini-ku, ko‘rib bo‘lmaydi...

Onaxonning gaplari tinglab, uyalib ketdim. Axir uning farzandlari mening tengdoshlarim, hozirgi zamon yoshlaridan-ku. Shundaylarning kasriga «yoshlar tarbiyasiz bo‘lib ketishyapti» degan tamg‘ani orttirib olmayapmizmi, axir?!

MALOHAT.

OAY BIRLARI HAQ?

turli ko‘ngilochar joylarda uchrashib yuradi. «Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich» degan maqol bor. Sevish-sevilish ayb emas. Shuning uchun ham men yigitim bilan kinolarda, pana-pastqam joylarda emas, o‘z uyim oldida uchrashaveraman, deydi Zilola.

-Bu gapingni birov tushunadi, birov tushunmaydi, e‘tiroz bildiradi Iroda.- Sevgini hammaga ko‘z-ko‘z qilish shart emas. Qolaversa, mahalladagi qariyalar ko‘rib qolishsa, seni yomon qizga chiqarib qo‘yishadi... Sizningcha kim haq, aziz dugonajonlar?

Nazokat UMAROVA,
Toshkent shahridagi TAYI qoshidagi
akademik litsey o‘quvchisi.

O'rmonda bir quyon yashardi. U juda maqtanchoq bo'lib, doim quyonchalarga:

-Men hammadan kuchliman.

o'g'irlab yeb, qornini to'ydiribdi. Keyin uyiga qaytibdi. Qarasaki,

yerda dumalab yotgan yong'oq yoki to'kilgan chetan mevalari bormikan, deb qarayotsa, qayerdandir ikkita it paydo

MAQTANCHOQ QUYON

So'yloq tishlarim hammanikidan o'tkir, katta panjalarim hammanikidan kuchli, uzun mo'ylovlarim hammanikidan sezgir, shunday ekan, hech kimdan qo'rqlayman! -derdi.

Bir kuni quyonchalar maqtanchoq quyon haqida keksa qarg'aga gapirib berishdi. Shunda keksa qarg'a, «Uni shunaqangi boplab ta'zirini berish kerakki, boshqa maqtanmaydigan bo'lsin», debdi.


Yozda o'rmonda yashash mazza-da — turli mevalar, yong'oqlar serob, qaysi biriga qarashni bilmay qolasan. Ammo qishda hammayoqni qor qoplaganida ko'pgina o'rmon hayvonlari och qolib, ovqat izlab izg'ib yurishadi. Shunday qilib, yoz ketidan kuz, undan keyin qish kelibdi. Hammayoqni qor bosibdi, ovqat topolmay qolgan quyon nima qilishini bilmay, qishloqqa — dehqonlarning uyiga borib, suli



daraxt shoxida uni keksa qarg'a kutib turganmish.

Siri fosh bo'lgan quyon qo'rqlib ketibdi:

-Qarg'a xolajon, kechiring, tavba qildim! Endi s i r a y a m 'maqtanmayman, t i s h l a r i m hammanikidan o'tkir, panjalarim hammanikidan kuchli deb ham aytmayman!




Qarg'a uning aqlini kirgazish uchun bir necha shapaloq uribdi va bundan buyon s i r a y a m maqtanmasligini buyuribdi.

Ertasi kuni qarg'a qor ustiga uchib tushib, u yer-bu

bo'libdi. Itlar qarg'aga tashlanishibdi va uning qanotlaridan tishlab, azob bera boshlashibdi.

To'nka ostidagi uyasidan mo'ralagan quyon buni ko'rib qolibdi-da, qarg'aga rahmi kelibdi va itlarning yoniga kelibdi. Itlar esa quyonni ko'rishi bilan qarg'ani tashlashibdi-yu uning ketidan quva ketishibdi.

Lekin quyon ham anoyi emas ekan, u itlardan osongina qochib qutulibdi. Qarg'a esa yana shoxga uchib chiqibdi-da:




-Bizning quyon qanday botir! Maqtanchoqmas, bahodir! - deb qag'llay boshlabdi.

Qarg'aning ovozini butun o'rmon ahli eshitib, hayratdan yoqa ushlashibdi. Qani, bolalar, toping-chi, ular nega hayratlanishdi? Xulosani o'zingiz chiqaring!

Rus tilidan
Gulnoz TOJIBOYEVA
tarjimasi.

Gizning to'garak

MAKTABJM



KITOB

O'zi jonsiz bo'lsa ham,
Bilim berar bizlarga.
Uning nomi nima deb,
Savol beray sizlarga.

Unda bordir ertaklar,
Yaxshilikka yetaklar.
Hikoya, ocherk va she'r,
Ezgulikka yo'l ol der.

Har so'zi oltinga teng,
Jumlalar ma'nosi keng.
Keksa yosh ovunchog'i,
Doim ochiq quchog'i.

Shunda qo'lin ko'tarib,
O'midan turdi Mannob.
Maylimi aytsam ustoz,
Uning nomi-chi, kitob!

Anora MIRZAYEVA,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
34 - maktabning
7- «D» sinf o'quvchisi.



OLTINGUGURT

- O'g'lim, uzumzor boqqa,
Biroz muddat chiqmay tur.
Oltingugurt separmish,
Bobong, qani uyga yur.

- Unday bo'lsa oyijon,
Tezroq chiqqa qolaylik.
Sepilgan oltinlardan,
Ko'proq terib olaylik.

Nilufar MO'MINOVA,
Poytaxtimizdagi 272-maktabning
7- «V» sinf o'quvchisi.

Senda bilim olib, bo'lamiz yetuk,
Sendan chiqqan olim, alloma buyuk.
Bilimlar makoni sensan matabim,
Seni ardoqlagum, seni maqttagum.

FABIAT

Kimlardir beshafqat, kimlar mehribon,
Chin insonlar seni asraydi har on.
Ey, ona tabiat, aziz tabiat,
Sen bizdan doimo kutasan shavqat.
Yaxshilar hamisha yashnatay deydi,
Fidoiylik ila g'amingni yeydi.




Ra'no SOLIBOYEVA,

Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
16 - o'rta maktabning 10 -«A» sinf o'quvchisi.

SENI
SOg'INIB

Seni sog'inib,
Yeldayin yeldim.
Aziz matabim,
Bag'ringga keldim.



Kuz kunlari ham,
Keldi elimga.
Ta'til tugadi,
Navbat bilimga.

Ko'p o'qib, bilib,
Ilming oqlaymiz.



Ulg'aygach yurtni,
Yovdan saqlaymiz.

Dilafro'z USMONOVA,
Toshkentdag'i
169-maktab o'quvchisi.

UZUM

Bobom bilan bog'imga,
Bir tup uzum ekkandik.
O'sib-ulg'aysin, deya,
Umid ko'zin tikkandik.

Mehrla parvarishlab,
Asrab o'stirdik uni.
Totli mevalar berar,
Ishonaman bir kuni.



Bu yil jajji niholim,
Totli nishona berdi.
Bobom doim mehnatning,
Tagi zo'r rohat, derdi.

Gulchehra BOBOYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
18 - o'rta maktabning
7-sinf o'quvchisi.

*Mitti hikoyalar***IKKI OSHNA**

Do'sti bilan xurmo yeb o'tirgan bolakay o'zi yegan xurmolarning po'chog'ini do'stinikiga qo'shib qo'yib, uni uyaltirmoqchi bo'libdi.

-Xurmoni juda yaxshi ko'rар ekansiz-da, shunchasini yeb qo'yibsiz,-debdii u.

-Menimcha, siz mendan ham ko'ra ko'proq yaxshi ko'rар ekansiz, hatto po'chog'ini ham qoldirmabsiz,-deb javob beribdi do'sti.



Sahifamizni tengdoshlaringiz Qizlarxon YO'L DOSHEVA va Umida AHMAD XO'JAYEV Alar chizgan rasmlar bilan bezatdik.

«MEN HAM SHE'R YOZDIM...»

Maftuna ismli jajji jiyancham bor. Hali mакtabga chiqmagan bo'Isada, lotin alifbosida yozishni, o'qishni o'rganib olgan. Ularnikiga har safar borganimda jajji hikoyalar, she'riy kitobchalar olib borardim. Bu gal unga «Tong yulduzi» gazetasini olib bordim. Maftuna uni o'qishga kirishib ketdi. Keyin esa bir varaq qog'ozga allanimalarni qoralay boshladi. Oradan hech fursat o'tmay, u qo'limga haligi qog'ozni tutqazdi.

- Opajon, men ham she'r yozdim. Uni gazeta tahririyatiga olib borib bering. Gazetada chiqarishsin,-dedi menga umid bilan boqib.

- Albatta olib boraman,-dedim undagi qiziqishdan xursand bo'lib. So'ngra she'riga ko'z yogurtirdim:

BAHOR

Bahor kirib kelibdi,
Qishga «yaqin» qolibdi.
G'amlab oling narsalar,
Sovuq qotmang odamlar.

Jiyanchamning «she'ri»ni o'qib, o'zimni kulgudan bazo'r tiyib, tashqariga chiqib ketdim. Kulganimni ko'rib qolsa xafa bo'lardi-da...

*Iroda HAKIMOVA,
Shayxontohur tumanidagi
320-maktabning
9-«B» sinf o'quvchisi.*


AYIQCHANING AYBI

Ayiq avvonda ayiqchaga alla aytayotsa, ayiqcha atrofga alangladi. Ayiq ayiqchaga andarmonligidan allasidan adashibdi-da, ayiqchani ayblabdi. Ayiqcha aybini anglab, ayiq atrofida aylanib aytibdi:

- Ayajon, ahmoqchangizni ayblamang, alla aytayotganingizda atrofga alanglamayman.

Ayiq allasini aytaveribdi. Axir ayiqcha ayiqqa aziz-da!

*Mushtariybegim
SAYFIDDIN qizi,
Toshkent viloyati, Toshkent
tumanidagi
30-o'rta maktab o'quvchisi.*

**BEODOBLIK**

Bir bola do'stiga xat yozib o'tirgan ekan. Begona bir bola kelib, uning xatini zimdan o'qiy boshlabdi. Shunda haligi bola «Bir bedob, ahmoq bola oldimga kelib, xatimni o'qib o'tirbdi. Shuning uchun senga sirimni yozolmadim» deb yozib qo'yibdi.


- Nega meni bedob, ahmoq deyapsan?- debdi haligi bola jahli chiqib.- Men axir xatingni o'qiganim yo'q-ku.

- O'qimagan bo'lsang, bunday deb yozganimni qayerdan bilding?..

*Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati,
Parkent tumanidagi
35 - o'rta maktabning
5-sinf o'quvchisi.*



Toshbaqaning kosasidagi katakchalardan birida buyuk olim bobomizning ismlari yashiringan.



Eniga:

- | | |
|-------------------------------|-------------------------------------|
| 1. Boshpana. | 5. Bog'ni parvarish qiluvchi inson. |
| 2. Qishda o'sadigan o'simlik. | 6. Gazeta nomi. |
| 3. Ho'l meva. | 7. Ichimlik suvi. |
| 4. Don. | |



O'n bitta farqini toping.

Tuzuvchi: Shahzoda RIZAYEVA,

Toshkent shahridagi «Orom» nomli bog'cha-maktabining 4- «Y» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKİSTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKİSTON
RESPUBLİKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR İJTİMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRİR:
Umida ABDUAZİMOVA
TAHRİR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZİLOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(*Bosh muharrir
o'rinnbosari*),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahilalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
“Sharq” nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nusxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: “Buyuk
Turon” ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-861
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tarixi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08